

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA`LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**MIRZO ULUG`BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**



**Universitet Boshqaruv Kengashining 2025 yil 22-dekabr kuni o`tkazilgan 8-
sonli majlisi**

BAYONI

Samarqand 2025

Mirzo Ulug`bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
Boshqaruv Kengashining 8-sonli majlisining

BAYONI

2025-yil 22-dekabr

Samarqand shahri

Raislik qiluvchi:

Chidem Janbay Turkyilmaz-Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti rektori

Qatnashganlar: 18 nafar engash a`zosidan 15 kishi qatnashdi.

KUN TARTIBI

1.Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2025-yilda strategik rivojlantirish bo`yicha amalga oshirilgan ishlar va 2026-yildagi vazifalar to`g`risida

Ma`ruzachi: *Strategik rivojlantirish bo`yicha birinchi prorektor J.A.Qayumov*

2. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2025-yilda ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar bo`yicha amalga oshirilgan ishlar va 2026-yildagi vazifalar to`g`risida

Ma`ruzachi: *Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo`yicha prorektor A.N.Gadayev*

3. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2025-yilda yoshlar bilan ishlash va ma`naviy-ma`rifiy sohada amalga oshirilgan ishlar va 2026-yildagi vazifalar to`g`risida

Ma`ruzachi: *Yoshlar masalalari va ma`naviy-ma`rifiy ishlar bo`yicha prorektor Sh.X.Uzokov*

4. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2025-yilda o`quv-uslubiy sohada amalga oshirilgan ishlar va 2026-yildagi vazifalar to`g`risida

Ma`ruzachi: *O`quv ishlari bo`yicha prorektor M.T.Shodmonqulov*

5. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2025-yil davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan moliyaviy (daromadlar va xarajatlar) hisoboti

Ma`ruzachi: *Moliya-iqtisod ishlari bo`yicha prorektor R.Egamov*

6.Turli masalalar

Chidem Janbay Turkyilmaz - Kengash raisi:

Assalomu alaykum hurmatli Kengash a`zolari!

So`zimning avvalida barchangizga kirib kelayotgan yangi 2026 yil bilan tabriklayman. Bugun biz Samarqand davlat arxitektura va qurilish universiteti faoliyatining 2025 yil yakunlariga bag`ishlangan Boshqaruv kengashining navbatdagi hisobot yig`ilishida jam bo`lib turibmiz. Ushbu yig`ilish universitetimiz hayotida muhim ahamiyatga ega bo`lib, o`tgan yil davomida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish, erishilgan natijalarni baholash hamda kelgusidagi ustuvor vazifalarni belgilash imkonini beradi.

2025 yil SamDADU uchun tub islohotlar, ilmiy-ta`lim jarayonlarini takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va boshqaruv tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish yili bo`ldi. Davlatimiz rahbari tomonidan ta`lim va ilm-fan sohasiga qaratilayotgan alohida e`tibor, arxitektura va qurilish sohasida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash oldimizga katta mas`uliyat yuklamoqda.

Bugungi hisobot yig`ilishida biz universitet faoliyatining asosiy yo`nalishlari — ta`lim sifati, ilmiy-tadqiqot ishlari, xalqaro reyting va akkreditatsiyalar, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik bazani rivojlantirish masalalarini atroflicha ko`rib chiqamiz. Ishonchim komilki, bildiriladigan taklif va mulohazalar SamDADU ning barqaror rivoji va nufuzini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bugungi Boshqaruv Kengashi yig`ilishiga 18 a`zodan 15 kishi ishtirok etayapti. Kengashni ochishga kvorum bor. Yig`ilishni boshlab berish uchun ovoz berib tasdiqlashlaringizni so`rayman.

Taklif ovozga qo`yildi va tasdiqlandi.

Marhamat, kun tartibidagi masalalarni ko`rib chiqishni boshlasak.

Masalalarni ko`rib chiqish tartibi va reglament belgilandi hamda tasdiqlandi.

Barchangizni bugungi muhokamalarda faol ishtirok etishga chorlab, yig`ilish ishiga muvaffaqiyat tilayman.

1-masala

Chidem Janbay Turkyilmaz - Kengash raisi:

Birinchi masala bo`yicha so`z Stattegik rivojlantirish bo`yicha birinchi prorektor J.A.Qayumovga berildi. J.A.Qayumov so`zga chiqib, quyidagicha hisobot berdi. Nufuzli xorijiy oliy ta`lim muassasalari tajribasidan kelib chiqqan holda universitetning **tashkiliy tuzilmasi yangilandi**. Unga ko`ra bir xil vazifalarni takrorlovchi bo`limlar qisqartirilib, ularning o`rniga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yangi ma`muriy bo`limlar tashkil etildi.

Xalqaro reytingida oliygoh hamda fan yoʻnalishi boʻyicha TOP-1000 talik universitetlar roʻyxatidan joy olish maqsadida **QS (Quacquarelli Symonds)** hamda **THE (Times Higher Education)** va **UI GreenMetric** reyting agentliklari bilan hamkorlik yoʻliga qoʻyilib, hozirgi kunda universitet birinchi marta **1000+Times Higher Education** xalqaro reyting bazasiga kirdi. Shuningdek 2025-yil 5-dekabr kuni UI GreenMetric xalqaro reytingining 2025-yil uchun rasmiy natijalari eʼlon qilindi. Ushbu nufuzli “yashil universitetlar” baholashida Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti dunyoning **TOP-1000** oliy taʼlim muassasalari qatoridan munosib oʻrin egalladi.

Universitet taʼlim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan oʻtkazish boʻyicha **ASIIN** (The Accreditation Agency for Study Programmes in Engineering, Informatics, Natural Sciences and Mathematics) xalqaro akkreditatsiya tashkiloti bilan shartnoma imzolandi. Universitetning **Arxitektura va Qurilish muhandisligi** taʼlim yoʻnalishlarini xalqaro akkreditatsiyadan oʻtkazish boʻyicha kelishuvlarga erishildi hamda amaliy ishlar olib borilmoqda.

Oʻtgan davr mobaynida universitetda 2024-2025oʻquv yili yozgi taʼtil davrida **“GEOSIMBIOTIK WORKSHOP (GWS) 2025”** xalqaro amaliyot dasturida Yaponiyaning Setsunan universitetining **8 nafar** talabasi ishtirok etdi.

Soʻnggi yillarda **Italiya, Xitoy, Rossiya, Turkiya, Malayziya, Pokiston, Ozarbayjon, Qozogʻiston** kabi davlatlarning **35 dan ortiq** nufuzli oliy taʼlim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik shartnomalari va memorandumlar imzolandi.

Shuningdek, universitetning jami **88 nafar** professor-oʻqituvchilari **Xitoy Xalq Respublikasi, Qozogʻiston, Rossiya** va **Malayziya** kabi xorijiy mamlakatlarning nufuzli taʼlim va ilmiy taqdidot muassasalariga **malaka oshirish** va **stajirovka**larga yuborildi.

Universitetga arxitektura va qurilish sohasidagi ilgʻor amaliy tajribaga ega boʻlgan rivojlangan davlatlarning oliy taʼlim muassasalarining **18 nafar** professor-oʻqituvchilarining tashrifi va seminar treninglari tashkil etildi. Shuningdek hozirgi vaqtda **17 nafar** xorijiy professor-oʻqituvchi va xodimlar universitetda faoliyat yuritmoqda.

2025-yilda **47 nafar** talabalar Turkiya, Rossiya, Ozarbayjon Qozogʻiston oliy taʼlim muassasalarining akademik almashinuv dasturlarida ishtirok etishdi. Universitetning **22 nafar** iqtidorli talabalarning amaliyotlari Italiya, Xitoy, Yaponiya, Turkiya davlatlarining oliy taʼlim bazalarida tashkil etildi. xorijiy oliy taʼlim muassasalarining **70 nafar** talabalari amaliyoti Universitet bazasida tashkil etildi.

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida Xitoyning Hengda qurilish sifatini nazorat

qilish markazi bilan umumiy qiymati **4.0 mln \$ AQSh** dollari hajmida 2025-2035 yillarga mo'ljallangan shartnoma tuzilgan. 2025-yil 25-iyunda shartnomaga binoan, **1 mln** dollarlik laboratoriya jihozlari olib kelingan.

QAROR QILADI:

1.Kun tartibidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2025 yilda strategik rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va 2026-yildagi vazifalar to'g'risidagi hisoboti Strategik rivojlantirish bo'yicha birinchi prorektor J.A.Qayumov axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2-masala

Chidem Janbay Turkyilmaz – Kengash raisi:

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2025-yilda ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va 2026-yildagi vazifalar to'g'risida, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor A.N.Gadayev so'zga chiqib, quyidagicha quyidagicha hisobot berdi. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti ilmiy faoliyatini o'rganish jarayonida universitetda asosiy shtatda 369 nafar professor-o'qituvchilar, jumladan 2025-yil davomida 20 nafar fan doktorlari, 154 nafar fan nomzodi (ma'muriy-boshqaruv xodimlari bilan birgalikda) faoliyati olib borgan, ilmiy salohiyat 50.3% ni tashkil etadi.2025-yil 3 dekabr holatiga 3 nafar fan doktori (DSc) dissertatsiyasini himoya qilgan va professorlik unvonlarini olishgan. (Sadikova S., Bo'riyev X., Abdurayimov Sh.) (J. Qayumov, M.Shodmonqulov, D. Kamalova, Ch.J. Turkyilmaz, V.Usmonov, D.Sultanova, T.Maxmatqulov va Q. Mamasoliyev).2025-yil 3 dekabr holatiga 34 nafar falsafa doktori (PhD) dissertasiyalarini himoya qilgan (Fayziyev Zafar, Giyasov Umed, Sattarov Akbarali, Yakubova Furuza, Sul-tonov Akram, Imomov Muhiddin, Shodmonqulova Nilufar, Eshmamatov Rustam, G'oybulov Yo'ldosh, Toshtemirov Mirjalol, Haydarov Jonibek, Ismoilov Arslon, Turakulova Shaxnoza, Narkulov O., Qayumova L., Azimova Sh., O'roqov O., Mullodjanova G., Ruziyev Suxrob., Aymatov R.,Yarashov F., Jumanov Sh., Mirzayev Z., Diyarova M., Sultanov Damir, Abdiraxmonova Maxfuza, Abatova Sh., Ganiyeva D., Ibragimov L., Elmurodov B., Norqulov O. Uralov A., Boboyeva F., Kuchkarov Sh., Muxammadiyev I.) hamda 6 nafar PhD dissertatsiyasini yakunlab himoya uchun kengashga taqdim etgan va e'lon qilingan (Beknazarova M., Suyunov B., Islamov K., Yuldoshova Z., Abdusamatov Sh., Saidmurodova S.).2025-yil 3 dekabr holatiga xorijiy mamlakatlarda falsafa doktori (PhD) dissertasiyalarini 2 nafar xorijiy fuqora (rahbar Ch.Turkyilmaz) himoya qilgan.5 nafar 2025-yilda diplom olgan.Hozirda

universitetda 11 nafar doktorantura(DSc) 5 nafar xorijiy fuqaro (DSc) tadqiqotchilari tahsil olmoqda.Hozirda universitetda 105 nafar tayanch doktorantura(PhD) 10 nafar xorijiy fuqaro PhD tadqiqotchilari tahsil olmoqda. Shu bilan birga 4 nafar stajyor tadqiqotchilar dissertasiya mavzulari bo'yicha ilmiy tadqiqot olib bormoqdalar.2025-yil 3 dekabr holatiga universitetda 122 nafar mustaqil izlanuvchilar (PhD) va 7 nafar mustaqil izlanuvchilar (DSc) tahsil olmoqdalar.Universitet professor o'qituvchilari tomonidan 2025-yil 3 dekabr holatiga 67 ta monografiya chop etilgan.2025-yil 3 dekabr holatiga 5 ta patent olingan, 5 ta patentga buyurtma berilgan va dastlabki ekspertiziyadan o'tkazilgan. Universitet professor o'qituvchilari tomonidan 2025-yil 3 dekabr holatiga xalqaro ilmiy jurnallarda 141 ta, jumladan Scopus, Web of Science ma'lumotlar bazasiga kiradigan jurnallarida 77 ta ilmiy maqolalar chop etilgan. Universitet professor o'qituvchilari tomonidan 2025-yil 3 dekabr holatiga respublika ilmiy jurnallarida 426 ta ilmiy maqolalar chop etilgan.2025-yil 3 dekabr holati uchun 1.4 koeffitsiyent bo'ldi. 2025-yil 3 dekabr holatiga 20 ta dasturiy mahsulotlariga guvohnoma hamda 32 ta obyektga mualliflik huquqini beruvchi jami 52 ta guvohnomalar olindi. Hozirda Turkiya, Xitoy, Belorussiya va Italiya davlari bilan qo'shma loyihalar bo'yicha tanlovlarda ishtirok etilmoqda. Polsha-Amerika moliyaviy ko'mak fondining Programu Kirklanda granti 30375 AQSh dollari (F.Murtozayev) va Germaniyaning DAAD loyihasidan 9125 AQSh dollar miqdorida loyihalar amalga oshirilgan (L.Raximov).2025-yil 3 dekabr holatiga Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti professor-o'qituvchilari tomonidan Davlat grantlari asosida professor-o'qituvchilar tomonidan Turkiya oliy ta'lim muassalari bilan hamkorlikda Turkiya Respublikasi Ilmiy va texnologik tadqiqotlar kengashi (TUBITAK) bilan hamkorlikda "O'zbekiston-Turkiya" xalqaro qo'shma loyihalar tanlovi 98-turiga 21,45 mlrd so'mlik 9 ta qo'shma ilmiy loyihalar, "O'zbekiston-Belorussiya" xalqaro qo'shma loyihalar tanlovining 99-turiga qiymati 2,23 mlrd so'mlik hajmida 1 ta amaliy loyiha, Italiya Ta'lim va tadqiqot vazirligi (MIUR) bilan hamkorlikda "O'zbekiston-Italiya" xalqaro qo'shma tanlovi 100-turiga 1,93 mlrd so'mlik hajmida 1 ta qo'shma ilmiy loyihalar, "O'zbekiston-Xitoy" xalqaro qo'shma tanlovi 105-turiga 8,86 mlrd so'mlik hajmida 5 ta qo'shma ilmiy loyihalar tayyorlandi va loyiha.ilmiy.uz orqali vazirlikka taqdim etildi.2025-yil 3 dekabr holatiga universitet professor-o'qituvchilari tomonidan sohalar buyurtmasi asosida 5,600 mlrd so'mlik 38 ta xo'jalik shartnomalari tuzilgan shundan 32 ta xo'jalik shartnomalaridan 2.40 mlrd so'mlik mablag'lari tushgan.2025-yili 3 dekabr holatiga Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti professor-o'qituvchilari tomonidan xorijiy olimlar bilan hammualliflikda 58 ta maqolalari chop etilgan.

QAROR QILADI:

1.Kun tartibidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2025 yilda ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va 2026-yildagi vazifalar to'g'risidagi hisoboti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor A.N.Gadayev axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3-masala

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2025-yilda yoshlar bilan ishlash va ma'naviy-ma'rifiy sohada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot.

Chidem Janbay Turkyilmaz – Kengash raisi:

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor Sh.X.Uzokov so'zga chiqib, 2025-yilda Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining "Ulug'bek vorislari" jamoasi o'z spektakli bilan "Talabalar teatr studiyalari" festivalining final bosqichida faxrli 1-o'rinni egalladi!

2025-yilda Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti talabalari orasida zakovatning eng quvnoq o'yini — Zakovat QUIZ bo'lib o'tdi. Tadbir davomida talabalar jamoaviy fikrlash, tezkorlik va bilimni sinovdan o'tkazish imkoniga ega bo'ldilar. O'yin do'stona muhitda, qiziqarli savol-javoblar asosida tashkil etilib, ishtirokchilarda ijobiy taassurot qoldirdi.

2025-yilda Respublikaning intellektual sohadagi eng yirik turniri bo'lgan "Intellektual olimpiada" musobaqasida universitetimiz terma jamoasi ishtirok etdi. Respublikaning 50 ta eng kuchli OTM terma jamoalari 15-18-dekabr kunlari Toshkent shahrida o'zaro bellashdi. Garchi sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritish bo'lsa-da, universitetimiz intellektual yoshlarining ishtiroki barchada iliq taassurot qoldirdi. Jumladan, Zakovat NNT o'zining telegram rasmiy kanalida universitetimiz terma jamoasi haqida iliq fikrlar yozib qoldirdi. Intellektual olimpiadada munosib ishtirok etgan Zakovatchilarimiz kelgusi yillarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritishni o'zlariga maqsad qildilar. Turnir taqdirlash marosimidan so'ng termamiz a'zolari Zakovat NNT prezidenti Abdurasul Abdullayev va Zakovat NNT magistri Jobir Ahmedovlar bilan esdalik suratga tushdi.

2025-yilda Talabalar o'rtasida notiqlik mahoratini rivojlantirishga qaratilgan "Notiqlik mahorati" nomli respublika ko'rik-tanlovida respublikamizdagi 10 dan ortiq oliy ta'lim muassasalaridan 70 ga yaqin iqtidorli talabalar ishtirok etdi. Mazkur nufuzli tanlovda Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti jamoasi a'zolari "Yosh kitobxon" klubi koordinatori Abrorbek Hayitboyev boshchiligida barcha yo'nalishlar bo'yicha oliy o'ringa loyiq deb topildilar.

Faxrli nominatsiyalar g'oliblari:

“Tanlovning eng zukko notiq talabasi” — Abdukarimov Beknazar

“Tanlovning eng ijodkor notiq talabasi” — Ubaydullayev Otabek

“Tanlovning eng hozirjavob talabasi” — Xurazov Alisher

2025-yilda Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti kichik faollar zalida “Kitob karvoni – talabalar uchun 1000 kitob” loyihasi doirasida “Yosh kitobxon” va “Mushoira” klublari a'zolari ishtirokida universitetga taqdim etilgan yangi adabiyotlar taqdimoti bo'lib o'tdi. Tadbirni Talaba klublari bo'limi boshlig'i Charos Xushmurodova kirish so'zi bilan ochib, loyihaning maqsad va ahamiyatiga to'xtalib o'tdi. Shundan so'ng O'zbekiston Yoshlar ittifoqi SamDAQU boshlang'ich tashkiloti yetakchisi Azizbek Maxmudov so'zga chiqib, taqdim etilgan adabiyotlarning mazmuni va mundarijasi yuzasidan batafsil tushunchalar berdi. Tadbir davomida Yoshlar ishlari agentligi hamda Yoshlar ittifoqi tomonidan sovg'a sifatida taqdim etilgan kitoblar ramziy tarzda “Yosh kitobxon” va “Mushoira” klublari koordinatorlariga topshirildi. Yakunda klub a'zolari yangi adabiyotlar haqida o'z fikr va taassurotlari bilan o'rtoqlashib, tashabbuskorlarga minnatdorchilik bildirishdi. Shuningdek, Talaba klublari bo'limi xonasida ushbu kitoblar uchun maxsus kitob javonlari tashkil etilishi, va bu joy Yoshlar ittifoqi hamda bo'limning mo'jaz kutubxonasiga aylantirilishi bo'yicha kelishuvga erishildi.

2025-yil 20-may kuni Boqiy shaharda bo'lib o'tgan “Talaba — yugur” ko'ngillilar yugurish sport musobaqasining “Bahorgi” mavsumi yakunlandi. Mazkur sport tadbiri Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Sport vazirligi, Yengil atletika federatsiyasi, “UZINFOCOM” MCHJ hamda Talabalar sporti assotsiatsiyasi hamkorligida tashkil etildi. Musobaqada Samarqand viloyatidagi barcha oliy ta'lim muassasalari talabalari ishtirok etdi. Jumladan, Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining ko'ngilli talabalari ham faol qatnashib, yuqori natijalarga erishdi! 1-, 2-, 3-o'rinlarni qo'lga kiritgan talabalarga universitet rektori tomonidan qo'shimcha stipendiyalar topshirildi! Yoshlarimizni sog'lom hayot tarziga jalb qilish, sportni kundalik hayotga aylantirish maqsadida o'tkazilayotgan bu musobaqa yiliga ikki marta — “Kuzgi” va “Bahorgi” mavsumlarda tashkil etilib kelinmoqda.

QAROR QILADI:

1. Kun tartibidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2025 yilda yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va 2026-yildagi vazifalar to'g'risidagi hisoboti yoshlar masalalari va

ma`naviy-ma`rifiy ishlar prorektor Sh.X.Uzokov axboroti ma`lumot uchun qabul qilinsin.

4-masala

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2025-yil davomida o`quv-uslubiy sohada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot.

Chidem Janbay Turkyilmaz -Kengash raisi:

Ma`ruzachi: *O`quv ishlari bo`yicha prorektor M.T.Shodmonqulov* so`zga chiqib, 2025-yil davomida **20 ta** murojaat va jami **637 973 ta** mutasaddi yuqori tashkilotlarning buyruqlari, farmoyishlari va ko`rsatmalari, o`quv-tarbiya jarayonlariga oid masalalar bo`yicha ishlandi va ijrosi ta`minlandi. 2024-yilga nisbatan mutasaddi yuqori tashkilotlarning buyruqlari, farmoyishlari va ko`rsatmalari, o`quv - tarbiya jarayonlariga oid masalalar bo`yicha 336 taga ko`paygan.

Dekanatlar, kafedralar va Registrator ofisi mas`ullariga dars mashg`ulotlarini o`tkazilishini yil davomida nazorat qilish bo`yicha ishlar olib borildi hamda aniqlangan kamchiliklar joyida bartaraf etildi.

Kafedra mudirlari va dekanlar bilan hamkorlikda 2024/2025 o`quv yilida amaliyotga yuborilgan **5311 nafar** 2-3-4 kurs talabalarga munosib shart-sharoit yaratildi. Bundan tashqari 2024/2025-o`quv yilida dual ta`limni yo`lga qo`yish maqsadida soha korxonalarida kafedralarning filiallarini tashkil etish va filialda amaliy mashg`ulotlar o`tish uchun barcha sharoitlar yaratish topshiriqlari berildi. Natijada **13 ta** mutaxassis chiqaruvchi kafedralar filiallari faoliyati takomillashtirildi.

“Arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to`g`risida”gi PQ-416-sonli Prezident qarorining maqsadli ko`rsatgichlarida belgilangan vazifalarni bajarish bo`yicha yil davomida ishlar olib borildi. Universitet professor o`qituvchilari tomonidan 2025-yilda **62 ta** darslik tayyorlandi va belgilangan tartibda www.adabiyot.edu.uz elektron platformasi orqali taqdim etildi va guvohnoma olindi Shuningdek, 2025-yilda **125 ta** o`quv qo`llanma tayyorlandi va belgilangan tartibda www.adabiyot.edu.uz elektron platformasi orqali taqdim etildi va guvohnoma olindi.

Kelgusi 2026-yil uchun universitetimizda **190-ta** zamonaviy va yangi avlod o`quv adabiyotlarni yaratish va chop etish borasida kafedralar kesimida taqsimlanib chora-tatbir rejasi ishlab chiqildi.

Universitetda TOP-300 ro`yxatidagi oliy ta`lim tashkilotlarining dasturlari asosida tashkil etish yuzasidan hozirga qadar mavjud **19 ta** kafedraning professor-

o'qituvchilari tomonidan mutaxassislikga oid fanlardan **25 ta** fan dasturlari ishlab chiqildi.

Geomatika muhandisligi kafedrasining 60722800-Kadastr (Ko'chmas mulk kadastr) ta'lim yo'nalishi (4-bosqich) talabalaridan **56 nafar**, 60722500-“Geodeziya, kartografiya va kadastr” ta'lim yo'nalishi (3-4-bosqich) talabalaridan **40 nafar**, hamda 70721501 - Geodeziya va geoinformatika mutaxassisligi magistrantlaridan **5 nafar** jami: **101 nafar** talabalar Samarqand tumanidagi muommoli yer uchastkalarida xatlov ishlari amalga oshirib egalik huquqlarni belgilashda amaldagi tartibda rasmiylashtirish ishlarini bajarildi. mutaxassislik kafedralari korxonalar bilan mehnatga haq to'lanadigan amaliyotlar yo'lga qo'yildi.

2025-yil davomida kamida B2 darajasidagi xorijiy tilni bilish sertifikatiga ega bo'ladigan professor-o'qituvchilar soni **35 nafar**ga yetdi va 2026-yilda bu ko'rsatkichni **40 nafar**ga yetkazish rejalashtirildi.

Hemis axborot tizimidagi professor-o'qituvchilar ro'lidagi vazifalar, o'tilgan dars mashg'ulotlarni o'z vaqtida qayt etishlari va fakultet dekani ro'lidagi vazifalar faoliyati nazorat qilindi. Aniqlangan kamchiliklar bartaraf etildi.

Universitet talabalaridan **47 nafari** xalqaro akademik almashinuv dasturlari bo'yicha xorijiy oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishdi. Jami **70 nafar** talabaning amaliyotlari ilg'or xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari bazalarida tashkil etildi. Bundan tashqari 100 dan ortiq xorijiy talabalarning amaliyoti universitet bazasida tashkil etildi.

Universitet tasarrufidagi akademik litye uchun universitet professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda mahorat darslari tashkil qilindi bundan tashqari Ochiq eshiklar kunlari. “Antikorrupsiya bilimdoni” va shu ko'rinishdagi ko'riktanlovlar bo'lib o'tdi.

QAROR QILADI:

1. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida o'quv-uslubiy sohada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan O'quv ishlari bo'yicha prorektor M.T.Shodmonqulov hisoboti ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

5-masala

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining 2025-yil davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan moliyaviy (daromadlar va xarajatlar) hisoboti

Ma`ruzachi: *Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektor R.Egamov*

Chidem Janbay Turkyilmaz – Kengash raisi:

Ma`ruzachi: Moliya va iqtisod ishlari bo`yicha prorektor R.Egamov so`zga chiqib, 2025- yil yanvar-dekabr oylarida davlat budjeti, o`qitishning to`lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag`lar yil boshiga qoldiq bilan birga, xo`jalik faoliyatidan, shartnoma asosida xizmat ko`rsatkishdan va boshqa manbalardan tushumlar 2025-yilga nisbatan, 2026-yilda 31% da o`sganini qayd etish kerak. 2025-yilda xarajatlar daromadning 84 % ni tashkil etgan bo`lsa, 2024-yilda xarajatlar 59,2%ni tashkil etishini qayd etish kerak.

Boshqaruv kengashi qaror qiladi:

1. Kun tartibidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2025 yilda strategik rivojlantirish bo`yicha amalga oshirilgan ishlar va 2026-yildagi vazifalar to`g`risidagi hisoboti Strategik rivojlantirish bo`yicha birinchi prorektor J.A.Qayumov axboroti ma`lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kun tartibidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2025 yilda ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar bo`yicha amalga oshirilgan ishlar va 2026-yildagi vazifalar to`g`risidagi hisoboti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo`yicha prorektor A.N.Gadayev axboroti ma`lumot uchun qabul qilinsin.

3. Kun tartibidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2025 yilda yoshlar masalalari va ma`naviy-ma`rifiy ishlar bo`yicha amalga oshirilgan ishlar va 2026-yildagi vazifalar to`g`risidagi hisoboti yoshlar masalalari va ma`naviy-ma`rifiy ishlar prorektor Sh.X.Uzokov axboroti ma`lumot uchun qabul qilinsin.

4. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida o`quv-uslubiy sohada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan O`quv ishlari bo`yicha prorektor M.T.Shodmonqulov hisoboti ma`lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

5. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining 2025-yil davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan moliyaviy (daromadlar va xarajatlar) bo`yicha moliya va iqtisod ishlari bo`yicha prorektor R.M.Egamov hisoboti ma`lumot ushun qabul qilinsin.

Boshqaruv kengashi raisi:

Bosh kotib:



Ch.J.Turkyilmaz

U.T.Xolmatov